ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI, SARKARDA VA MA'RIFATPARVAR

ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР – ВЕЛИКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ, ПОЛКОВОДЕЦ И ПРОСВЕТИТЕЛЬ

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR – A GREAT STATESMAN, MILITARY COMMANDER AND ENLIGHTENER

Ochilova Sabriniso Qodir qizi
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Maxsus fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: sabrinisoochilova58@gmail.com
Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Shadmanov Erkin Sherkulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ko'p qirrali shaxsiyati – buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va teran ma'rifatparvar sifatidagi faoliyati uch yo'nalishda tahlil qilinadi. Boburning yoshligidan boshlab davlat boshqaruvi tajribasi, Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solgan sarkardalik mahorati hamda «Boburnoma», «Mubayyinul-zakot», «Risolai aruz» kabi asarlarida namoyon bo'lgan ilmiy-adabiy merosi yoritiladi. Shuningdek, uning merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, jumladan, Bobur nomidagi davlat stipendiyasining ta'sis etilishi tahlilga tortiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется многогранная личность Захириддина Мухаммада Бабура – как великого государственного деятеля, искусного полководца и глубокого просветителя. Рассматривается его опыт государственного управления с юных лет, полководческое мастерство, благодаря которому в Индии было основано государство Бабуридов, а также научно-литературное наследие, отражённое в таких произведениях, как «Бабур-наме», «Мубаййин-уль-закат», «Рисолаи аруз». Также анализируется

государственная политика независимого Узбекистана по изучению и популяризации его наследия, в том числе учреждение государственной стипендии имени Бабура.

Abstract. This article analyzes the multifaceted personality of Zahiriddin Muhammad Babur as a great statesman, a skillful military commander, and a profound enlightener. It examines his experience of state governance from an early age, his military leadership that led to the founding of the Baburid state in India, and his scholarly and literary legacy reflected in works such as "Baburnama," "Mubayyin al-Zakat," and "Risola-i Aruz." The article also considers the state policy of independent Uzbekistan aimed at studying and promoting his legacy, including the establishment of the Babur state scholarship.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, «Boburnoma», davlat boshqaruvi, sarkardalik san'ati, Panipat jangi, Boburiylar imperiyasi, ma'rifatparvarlik, bobur shunoslik, milliy davlatchilik, Bobur nomidagi davlat stipendiyasi.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабур-наме», государственное управление, военное искусство, битва при Панипате, государство Бабуридов, просвещение, бабуроведение, национальная государственность, государственная стипендия имени Бабура.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, "Baburnama", state governance, military art, Battle of Panipat, Baburid state, enlightenment, Babur studies, national statehood, Babur state scholarship.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy davlatchilik tarixini va buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-madaniy merosini chuqur o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada temuriyzoda, buyuk shoir, tarixchi-geograf olim va mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur merosini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorida uning ilmiy-

ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini xalqaro miqyosda chuqur o‘rganish hamda natijalarini e’lon qilish vazifasi belgilab qo‘yilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) jahon tarixida kam uchraydigan, bir necha sohada teng darajada yuksak natijalarga erishgan siymolardan biridir. U bir vaqtning o‘zida davlat boshqaruvi sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan hukmdor, o‘z davrining eng mohir sarkardalaridan biri hamda tarix, geografiya, tilshunoslik va adabiyot sohalarida chuqur iz qoldirgan olim va ma’rifatparvar edi. Uning «Boburnoma» asari[1] nafaqat badiiy-memuar asar, balki o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik manzarasini aks ettiruvchi noyob tarixiy manba sifatida ham qiymat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyatini uch asosiy jihat: davlat arbobi, sarkarda va ma’rifatparvar sifatidagi faoliyatini yaxlit tizimda tahlil qilish hamda uning merosining zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyoti, xususan, yosh avlod tarbiyasi va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, Bobur merosini har tomonlama o‘rganish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki bugungi davlat qurilishi, ta’lim-tarbiya va xalqaro madaniy hamkorlik jarayonlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Boburning davlat boshqaruvi borasidagi tajribasi juda erta, hali yoshligidayoq shakllana boshlagan. U 1494 yilda, atigi 12 yoshida otasi Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng Farg‘ona taxtiga o‘tirgan va murakkab siyosiy kurashlar sharoitida davlatni boshqarishni o‘rgangan[2]. Farg‘ona, Samarqand uchun olib borilgan uzoq yillik kurashlardan so‘ng, u 1504 yilda Kobulda o‘z hokimiyatini mustahkam o‘rnatadi, so‘ngra 1526 yildan e’tiboran Hindistonda yangi davlat tuzilmasini barpo etadi. Bu jarayonda Bobur nafaqat harbiy, balki ma’muriy-boshqaruv tajribasini ham izchil to‘playdi.

Boburning boshqaruv falsafasida layoqat va bilimga asoslangan kadrlar siyosati, mahalliy an’analarni hurmat qilgan holda markaziy hokimiyatni mustahkamlash tamoyillari ustuvor bo‘lgan[3]. Afg‘onistonda u shunchaki fotih

sifatida emas, balki yurt va el obodonligi uchun harakat qiluvchi tadbirkor hukmdor sifatida faoliyat yuritgan, mintaqadagi turli elat va dinga mansub kishilardan iborat jamiyatni boshqarishda adolat va bag‘rikenglik tamoyillariga tayangan[4].

Boburning davlat boshqaruvidagi qobiliyati uning moliyaviy-iqtisodiy sohadagi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. 1521 yilda u soliq ishlariga bag‘ishlangan «Mubayyinul-zakot» nomli maxsus asarini yozgan, unda zakot va boshqa soliq turlari ilmiy-shar’iy asosda izohlangan[5]. Bunday yondashuv o‘sha davr uchun davlat xazinasini tizimli boshqarishga intilishning amaliy ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Shu tariqa Bobur nafaqat harbiy yurishlar orqali, balki puxta o‘ylangan ma’muriy va moliyaviy siyosat orqali ham barqaror davlat asoslarini shakllantirgan davlat arbobi sifatida tarixda o‘z o‘rnini egallagan.

Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik salohiyati uning butun umri davomida olib borgan harbiy yurishlarida sinovdan o‘tgan. 1525 yil kech kuzida u Panjobni bo‘ysundirib, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyga qarshi hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan[6]. 1526 yil 21 aprelda bo‘lib o‘tgan Birinchi Panipat jangi jahon harbiy tarixidagi eng muhim to‘qnashuvlardan biriga aylandi: bu jang Hindiston yarim orolida porox bilan otiladigan qurollar va dala artilleriyasi qo‘llanilgan dastlabki janglardan bo‘lib, aynan shu jangda Boburiylar tomonidan zamonaviy o‘t qurollaridan foydalanilgan[7].

Bobur o‘zining 12 ming kishilik qo‘shini bilan Ibrohim Lo‘diyning yuz mingdan ortiq jangchisiga qarshi chiqqan va g‘alaba qozongan. Bu g‘alabaning sirlari orasida Bobur qo‘shinining oldindan chuqur xandaqlar qazishi, minglab aravalarni ip va zanjirlar bilan mustahkam bog‘lab mudofaa liniyasi barpo etishi, shuningdek, o‘t qurollari bilan otliq qo‘shinni uyg‘un tarzda qo‘llash mahorati alohida ta’kidlanadi[8]. Mutaxassislarning fikricha, qo‘shinlar sonidagi bunday keskin nomutanosiblik sharoitida erishilgan g‘alaba jahon harbiy tarixida kamdan-kam uchraydigan hodisa hisoblanadi.

Panipat jangidan so‘ng ham Bobur yanada og‘ir sinovlarga duch keladi: 1527 yil 16 martda Agradan 60 kilometr g‘arbda joylashgan Konva yaqinida Rano Sango

boshchiligidagi kuchli rajput ittifoqiga qarshi jang bo‘lib o‘tadi va bu jang ham Boburning to‘liq g‘alabasi bilan yakunlanadi[9]. Xorijlik tarixchilarning tahlillariga ko‘ra, Boburning Panipat va Konva (Sikri) janglaridagi g‘alabalari uning nafaqat jasur jangchi, balki chuqur strategik fikrlay oladigan, dushman kuchini puxta o‘rgangan holda qaror qabul qiluvchi sarkarda ekanligidan dalolat beradi[10]. Aynan shu g‘alabalar natijasida Hindistonda uch yarim asrdan ortiq davom etgan Boburiylar imperiyasiga asos solindi.

Bobur davlat arbobi va sarkarda bo‘lish bilan bir qatorda, o‘z davrining yetuk olimi va ma’rifatparvari ham edi. 1504 yilda u turkiy tilning fonetik xususiyatlariga moslashtirilgan yangi alifbo – «Xatti Boburiy»ni yaratadi, unda she’rlar bitadi va hatto Qur’oni Karimni ko‘chiradi[11]. 1523–1525 yillarda yozilgan «Risolai aruz» asarida esa turkiy aruz vaznining tabiati va taraqqiyoti ilmiy tahlil qilinib, aruzning 272 vazni va 21 bahriga oid puxta sharhlar berilgan, bu esa Boburning nafaqat shoir, balki nozik til va adabiyot nazariyotchisi ham bo‘lganini ko‘rsatadi.

Boburning ma’rifatparvarlik faoliyatining yana bir muhim qirrasi – uning tarjimonlik mahorati. 1527 yil oxirida og‘ir kasallikka chalingan Bobur o‘zi e’tiqod qo‘ygan Xoja Ahror Valiyning nasrda bitilgan «Volidiya» asarini juda qisqa muddatda 243 baytli she’riy tarzda o‘zbek tiliga o‘girgan[12]. Shuningdek, u o‘g‘li Humoyunga davlat boshqaruvi va axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan mashhur maktubini yozib qoldirgan, bu esa Boburning nasihatgo‘ylik va pedagogik merosidan dalolat beradi[13].

Bobur o‘zining og‘ir siyosiy va harbiy sharoitlariga qaramay, ilm, san’at va ijod ahlini doimo o‘z atrofiga to‘plagan, ularga homiylik qilib, rag‘batlantirib turgan. Uning «Boburnoma» asari o‘zining tarixiy-ilmiy qimmati tufayli 1826–1985 yillar mobaynida to‘rt marta ingliz, uch marta fransuz va bir marta nemis tiliga tarjima qilingan, bu esa Boburning ilmiy-adabiy merosi nafaqat milliy, balki jahon miqyosidagi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mustaqillik yillarida Bobur merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yuqorida qayd etilgan PQ-20-son qarorga muvofiq,

«Bobur ensiklopediyasi»ning to‘ldirilgan nashrlari tayyorlandi, «Boburnoma»ning zamonaviy tillarga tarjimasi va tahlili, shuningdek, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalarni izlash va o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda[14]. Bu borada erishilgan yutuqlar O‘zbekistonni dunyo bobur shunosligining muhim markazlaridan biriga aylantirdi.

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab tarix va geografiya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilgan[15], bu esa yosh avlodni milliy tarixiy merosni chuqur o‘rganishga rag‘batlantirishning amaliy ko‘rinishidir. Bundan tashqari, Bobur va Boburiylar merosi bugungi kunda xalqaro madaniy diplomatiyaning muhim vositasiga aylanmoqda: xususan, O‘zbekiston – Pokiston munosabatlarida umumiy tarixiy xotira va madaniy meros ikki xalq o‘rtasidagi strategik sheriklik uchun mustahkam ma’naviy poydevor vazifasini o‘tamoqda[16]. Bu misol tarixiy-ma’rifiy merosning nafaqat ichki ta’lim tizimi, balki tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik uchun ham muhim resurs bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyati va merosi uch bir-biri bilan uzviy bog‘liq jihatda namoyon bo‘ladi. Davlat boshqaruvi sohasida u yoshligidan boshlab murakkab siyosiy vaziyatlarda qaror qabul qilish mahoratini egallagan, layoqatga asoslangan kadrlar siyosati va markaziy hokimiyatni mustahkamlash tamoyillarini amaliyotga tatbiq etgan davlat arbobi sifatida namoyon bo‘lgan. Harbiy sohada esa u zamonaviy qurol-yarog‘ va nozik strategik fikrlashni uyg‘unlashtirib, sonda ustun dushman ustidan g‘alaba qozongan va Hindistonda uch yarim asrdan ortiq hukm surgan Boburiylar imperiyasiga asos solgan sarkarda edi. Ma’rifat sohasida esa Bobur tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimonlik va tarixnavislik borasidagi boy merosi bilan keyingi avlodlarga ulkan ilmiy-ma’naviy xazina qoldirgan olim va ma’rifatparvar sifatida tan olinadi.

Bobur merosini o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, uning nomidagi davlat stipendiyasining ta’sis etilishi hamda xalqaro madaniy hamkorlikdagi faol ishtiroki, tarixiy merosni zamonaviy davlat qurilishi va milliy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning amaliy namunasi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Bobur merosi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot yo‘lida davlat boshqaruvi, mudofaa-harbiy tayyorgarlik va ma’rifat-ta’lim sohalarida qimmatli ma’naviy-intellektual manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

TAKLIFLAR

1. Oliy ta’lim muassasalarining tarix, huquqshunoslik va davlat boshqaruvi yo‘nalishlarida «Bobur shunoslik» maxsus kursini o‘quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

2. Boburning «Boburnoma», «Mubayyinul-zakot», «Risolai aruz» kabi asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlab, ularni xalqaro ilmiy jurnallarda va nashriyotlarda chop etishni kengaytirish lozim.

3. Xorijiy mamlakatlar arxivlarida saqlanayotgan Bobur va Boburiylarga oid noyob qo‘lyozmalarni izlash, raqamlashtirish va o‘rganish bo‘yicha maqsadli davlat dasturini yanada kengaytirish zarur.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi doirasida yosh tadqiqotchilar uchun alohida ilmiy grantlar va xalqaro stajirovkalar tashkil etish tavsiya etiladi.

5. Bobur va Boburiylar merosini Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston kabi mamlakatlar bilan madaniy diplomatiya va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida yanada faolroq ishlatish maqsadga muvofiq.

6. Umumta’lim maktablari va akademik litseylarda Bobur hayoti va faoliyati asosida tarbiyaviy tadbirlar, ilmiy-amaliy loyihalar va konkurslar muntazam tashkil etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi PQ-20-son qarori. 2023 yil 25 yanvar. – lex.uz.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur – tarixchi va sarkarda sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ilmiy jurnali. – cyberleninka.ru/article/n/zahiriddin-muhammad-bobur-tarixchi-va-sarkarda-sifatida.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi // Tafakkur milliy portali. – tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi // Adiblar.uz elektron nashri. – adiblar.gitbook.io/adiblar/zahiriddin-muhammad-bobur-hayoti-va-ijodi.

6. Zahiriddin Muhammad Bobur // Adabiyot va o‘zbek tili portali. – parvoz.zn.uz/33.

7. Mirzo Boburning harbiy notiqlik mahorati // Xabar.uz, 2022 yil 14 fevral. – m.xabar.uz/uz/jamiyat/mirzo-boburning-harbiy-notiqlik.

8. Birinchi Panipat jangi // O‘zbekiston vikipediyasi. – uz.wikipedia.org/wiki/Birinchi_Panipat_jangi.

9. Bobur – buyuk sarkarda yoxud jahon harbiy san’ati rivojiga hissa qo‘shgan ulkan g‘alabalar // Baburid.uz. – baburid.uz/bibliography/397.

10. Hindiston fathiga doir ma’lumotlar («Boburnoma» misolida) // Baburid.uz. – baburid.uz/bibliography/998.

11. Boburning Panipat va Sikri janglari haqida xorij tarixchilarining ayrim mulohazalari // CyberLeninka. – cyberleninka.ru/article/n/boburning-panipat-va-sikri-janglari-haqida-xorij-tarixchilarining-ayrim-mulohazalari.

12. Zahiriddin Muhammad Bobur // Adabiyot Wikidot portali. – adabiyot.wikidot.com/forum/t-219392/zahiriddin-muhammad-bobur.

13. Ijodi va hayoti bilan ona yurtga sadoqatni aks ettirgan mutafakkir // O‘zA – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 2024 yil 14 fevral. – uza.uz/oz/posts/ijodi-va-hayoti-bilan-ona-yurtga-sadoqatni-aks-ettirgan-mutafakkir_567650.

14. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida axborot-bibliografik ko‘rsatkich // Do‘stlik tumani axborot-kutubxona markazi. – dostlik-akm.uz.

15. Bobur ilmiy-ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati // Worldly Journals xalqaro ilmiy jurnali, 2025. – worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/759/978/1595.

16. O‘zbekistonda talabalar uchun nomli stipendiyalar ro‘yxati yangilandi – ular kimlarga beriladi? // Sputnik O‘zbekiston, 2023 yil 12 avgust. – sputniknews.uz/20230812/talabalar-nomli-stipendiyalar-royxat-37784941.html.